

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va yuridik fakulteti 10_HISL-20guruh
magistrantlarining 2024/2025- o'quv yili mobaynida olib borgan ijtimoiy faolligini
baholash
BAYONNOMASI

2025 yil 15- iyul

Buxoro shahri

Qatnashdilar: Sayfullayeva D.Q.- Islom tarixi, manbashunoslik va falsafa kafedrasini mudiri, Ramazonova N.U.- islomshunoslik ta'lim yo'nalishi birinchi bosqich magistranti, Rajabova N.N.- islomshunoslik ta'lim yo'nalishi birinchi bosqich magistranti, Rajabova S.T.- islomshunoslik ta'lim yo'nalishi birinchi bosqich magistranti

Kun tartibida:

Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi birinchi bosqich talabalarining 2024/2025-o'quv yili mobaynida ijtimoiy faollik masalasi ko'rib chiqildi. Unda talabalarning ishtirok etgan ma'rifat darslaridagi ishtiroki, teatr, muzeylar, xiyobon hamda tarixiy qadamjolarga tashrifi, volontyorlik hamda jamoat ishlaridagi ishtiroki, O'zbekistonning tarixiy sanalari va umumxalq bayramlarini yuqori saviyada nishonlash borasida turli tadbirlarda ishtiroki, mamalakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosiy islohotlarda faolligi muhokama qilindi.

Eshitildi:

Kafedra mudiri Sayfullayeva D.Q. so'zga chiqib, islomshunoslik yo'nalishi birinchi bosqich magistrantlarining o'quv yili davomida olib borgan ijtimoiy faolligi yuzasidan batafsil ma'lumot berdi. Jumladan, talabalar ma'rifat darslarida muntazam ishtirok etgani, teatr, muzey, xiyobon va tarixiy qadamjolarga tashrif buyurgani, shuningdek, turli volontyorlik hamda jamoat ishlarida faol qatnashgani ta'kidlandi.

Shuningdek, magistrantlarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarni targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlashdagi o'rni, ular tomonidan o'tkazilgan ochiq suhbat va davra suhbatlarida faol ishtiroki e'tirof etildi.

So'zga chiqdi:

Ramazonova N.U. – olib borilgan ishlar jarayonida o'zlari tomonidan tashabbus ko'tarilgan loyihalar, jumladan, yoshlar bilan ma'rifiy uchrashuvlar, muqaddas qadamjolarga tashriflar hamda ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot ishlari haqida so'z yuritdi.

Rajabova N.N. – magistrantlar jamoasi sifatida teatr va muzey ekskursiyalari tashkil etilishi, bu esa nafaqat bilimni, balki tarixiy merosga bo'lgan hurmatni kuchaytirganini ta'kidladi.

Rajabova S.T. – Kogon shahri 7-umumiy o'rta ta'lim maktabida 18-noyabr "O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'i qabul qilingan kun" munosabati bilan 7-sinf o'quvchilari tomonidan tashkil etilgan tadbirda ishtiroki, volontyorlik faoliyatida, xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga ko'mak berishda faol qatnashgani haqida so'zlab berdi.

Qaror qilindi:

1. Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi birinchi bosqich magistrantlarining 2024/2025 o'quv yili davomida ko'rsatgan ijtimoiy faolligi qoniqarli deb topilsin.
2. Talabalar tomonidan olib borilgan ma'rifiy, madaniy, tarixiy va jamoat ishlaridagi faol ishtirok hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash yo'lidagi tashabbuslari ijobiy baholansin.
3. Kelgusi o'quv yilida ham bunday tashabbus va faoliyatni davom ettirish, yangi loyihalar ishlab chiqish hamda yoshlarni ma'naviy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan ishlarga alohida e'tibor qaratilsin.

Islom tarixi, manbashunoslik

kafedrasi mudiri:

Kotiba:



Sayfullayeva D.Q.

Sayfullayeva D.Q.







 BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI

 BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI